

## **EZGULIKKA YO'G'RILGAN QO'SHIQ**

***G'ulomjonova Odinaxon***

*Namangan viloyati tarixi va madaniyati  
davlat muzeyi katta ilmiy hodimi*

Ezgulik – ma'naviy-axloqiy kategoriyalar orasidagi eng muhim tushunchalardan biri. Ezgulik inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi, Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo'ladi. "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" g'oyasi "Avesto"dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o'rin egallashi ham shundan. Ezgulik insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag'ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, chinakam baxt sari yetaklovchi fazilat; shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyat. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yoxud partiyaviylik qobig'iga o'rash mumkin emas. Chunonchi, "sinfiy dushman"ni, ya'ni biror-bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bo'lgani uchun jismonan yo'qotish, qanchalik bo'yab-bejalmasin, ezgulik bo'lolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir. Totalitar tuzumlar mafkurasida ezgulikni bunday talqin etishning noilmiyligi, soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon. Ezgulik va yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o'lchanmaydi, ular ham "muhabbat" va "nafarat" tushunchalari singari qamrovlilik va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Nikoh to'yi — kelin va kuyovning nikohini jamoatchilikka ma'lum qilish tantanasi. Bu marosim davrlar o'tishi bilan qisman o'zgarib borgan va har bir etnik guruhda o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro farq qilgan. O'zbek xalqining qad. Nikoh to'yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud: sovchilik, unashtirish, uy ko'rar (qiz ko'rar), fотиha to'yi, to'y yuborish, qiz oshi (qizlar majlisi), nikoh o'qitish, kelin tushdi, kelin salom, charlar, quda chaqiriq kabi marosimlar va ular bilan bog'liq urf-odatlar. Ularning aksari-yati hozirgacha saqlanib, amal qilinib kelinadi. Nikoh to'yi kuni yoki bir kun oldin qiz tomonga to'yning oshini pishirib yoki xomligicha yuboriladi. Qiz xonadonida jamoaga osh tortiladi. Ba'zan kuyovnikida ham osh beriladi. To'y kuni yoki bir kun oldin qizning otasinikida nikoh marosimi o'tkaziladi. Kuyov yaqin jo'rasi, tog'asi bilan bo'lajak kelin xonadoniga borgan. Imom kuyovga er-xotinlik burchi va huquqlarini tushuntirgach, qizning yangasi orqali ruxsatini olib keyin "Xutbai nikoh" (nikoh haqidagi duo) o'qigan. Qad. o'zbekchilik udumiga ko'ra, nikoh to'yi tantanalari kuyovnikida o'tkaziladi. To'y oqshomi kuyov jo'ralari bilan, karnay-surnay, childirma-yu nog'oralar sadolari ostida sho'x o'yin-kulgi va zavkli qiyqiriqlar bilan ke-linnikiga keladi. Ular chimildiq tortilgan xonada, noz-ne'matlar to'la das-turxon atrofida siylanadilar. Suyuq ovqat, osh yeyilib bo'lingach, kuyov jo'ralaridan biri kelin tomondan kuyov sarposini "sotib oladi". Kuyovni qibla tarafga qaratib unga qizning onasi tayyorlagan chopon, salla

kiygiziladi. Kuyov jo'ralar muborakbod etgach, surnay xonishi ostida kuyovni qizning onasi, xola-ammalari bilan ko'rishgani olib kelishadi. Ona va buvining oq fotihasi, ezgu duolarini olib kuyov o'z jo'ralari bilan uyiga qaytadi. Kelinga oq libosini kiydirib, otasi, buvasi va tog'a, amaki kabi yaqin qarindoshlar bilan xayrlashgani olib chiqadilar. Kelin yangalari, dugonalari davrasida otasining oldiga kelib ta'zim ila bergan nonu tuziga rozilik so'raydi. Otasi qizining peshonasidan o'pib, yelkasidan quchib roziligini bildiradi, baxt tilaydi. Qiz onasi oldiga borib "ona-jon, bergan oq sutingizga rahmat" deb bag'riga singib rozi-rizolik so'raydi. Kelin mashinaga chiqmasidan avval ota unga oq fotiha beradi, baxt tilaydi. Ishtirokchilarning hammasi duoga qo'l ochib unga jo'r bo'ladilar. Eng qadim odatimizga muvofiq kelin kuyovning uyiga qadar yor-yor bilan kuzatib ko'yiladi. Bu odatlar har viloyatda, qishloklarda o'ziga xos tarzda o'tkaziladi.

Kelin salom — nikoh to'yi marosimlaridan. Kelin salom turkiy va boshqa xalqlarda turli shakllarda uchraydi. Kelin tushgan kunning ertasiga ertalab kuyovning ota-onasi va yaqinlariga hurmat yuzasidan o'tkaziladi. Mahallaning dasturxonchisi yoki K.s.ni boshqaruvchi kelinni yasantirib, yuziga parda yopgan holda hovliga olib chiqadi, qiziq gaplar, hikmatli so'zlar, baytlar bilan kelin yoniga keluvchilarga murojaat qilgan. Kelin jim turgancha gap kimga qaratilgan bo'lsa, o'shanga qarab ta'zim qilgan. Baland ovoz bilan birinchi bo'lib, qaynota, so'ng qaynona nomini aytib K.s. deydi. K.s. kuyov ota-onasidan boshlanib, oiladagi eng kichik bolalargacha, qo'niqo'shnilarga ham bag'ishlangan.

O'zbek xalq to'y marosimi juda ko'p qadimiy udum va rasm – rusumlardan tarkib topgan bo'lib, unda aytiladigan qo'shiqlarda ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-tilaklari, yaxshilik va ezgulik haqidagi qarashlari, odob-axloq, mexr-oqibat bilan bog'liq tasavvuelari mujassamlashgan. Xar bir viloyatdagi urf odatlar turli hil, masalan, Farg'ona vodiysi viloyatlarida esa «kelinsalom» qo'shiqlari mavjud. Kelin qo'shiq mazmuniga monand xolda egilib tazim berib turadi, kuyovning qarindoshlari esa «ko'p yashang qulluq»- deyishadi. Qo'shiqning avvali Ollohga, payg'ambarimiz Muhammad S.A.V ga, bag'ishlanadi. Bu janrning tarifiy bayon qismida ba'zan kuyovning qarindosh - urug'lari, to'yda xizmat qilgan barcha ishtirokchilarga xos xususiyatlar yumorga yo'g'rilgan bandlar orqali yengil kulgi ostiga xam olinadi. Dastlabki salom xonadonning ulug'lariga, undan keying bandlar qaynota, qaynona, aka-uka, opa-singil, amma-hola, tog'a-amaki, qo'ni -qo'shni, ma'sul shaxslarga bag'ishlanadi. Bunday shakldagi ta'rif o'zbek millatiga xos xususiyat, ta'rifiy bayon jarayonida yoritiladi. Bunday qo'shiqlar 4,5,6,8,12 misrali band tuzilishiga ega bo'lib, birinchi va ikkinchi misralarda asosiy fikri ifodalansa, keyingi misralar takrorlanuvchi naqoratdan tashkil topgan va matnda tematik, ritmik-sintatik, leksik-morfologik parallelizm xosil qilinib, nikoh to'yi uchun muhim bo'lgan xodisa- salom qildirish udumining o'ziga hos tasviri ifoda etilgan. Qolaversa, mazkur janr ijrosida uy ostonasidagi ta'zim xarakati, kelinni olov atrofida

aylantirish, uch marta shirin suv ichirish, chimildiq tutish, kelinning qo'liga yog' , un solish kabi udumlariga rioya qilinishi bu marosim qo'shig'I qadim zamonlardan buyon kuylanganligi va qo'shiqning shakllanishiga ta'zim harakati asos bo'lganligini ko'rsatadi. Xullas, kelinsalom xalqimiz badiiy tafakkurining tarixiy taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan qadimiy qo'shiqlardan biri bo'lib, ajdodlarimizning ezgu tilaklari, orzu intilishlari badiiy bezaklarga boy, betakror misralaralarda yuksak mahurat bilan ifoda etilgan. Ushbu udum o'zbek xalq manaviy merosning eng qadimiy va umrboqiy qadryatlaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1."Moziydan sado" –ilmiy-amaliy,ma'naviy-ma'rifiy jurnal.2022-2023-yillar sonlari.
- 2."Farg'ona vodiysida muzey ishi va faoliyati" I.Yusupov, I.Karimov. 2022-yil, O'zbekiston Respublikasi .Madaniy meros agentligi.
- 3."Moziy soboqlari" – Alijon Azizov. Namangan- 2021-yil.
- 4."San'at" jurnali- 2013-yil.
- 5."Guliston" –ijtimoiy-siyosiy,ilmiy-badiiy,madaniy-ma'rifiy jurnal. 2021-2022-yil.